

II bo'lim. Men va mening do'stlarim

9-10-daralar

MEN VA MENING SINFDOSH DO'STLARIM



Maktab – bizning ikkinchi uyimiz. Bu yerda o'qiyamiz va bilim olamiz. Maktabda yangi do'stlar orttiramiz. Maktabdagi fan va sport to'garaklarida istak va qiziqishlarimiz o'xshash bo'lgan bolalar bilan do'stlashamiz.



Rasmga qarang. Bu bolalar nimani yaxshi ko'rar ekan? Ular bilan o'rtoq bo'larmidingiz? Nima uchun?





Chivin, pashsha va asalari

Chivin bir kuni pashshadan so'radi:

– Bu yerda gullar bormi?
– Gullarni bilmayman-u, lekin axlat uyumi qayerda ekanidan xabarim bor, – dedi pashsha.


U yaqin atrofdagi barcha axlatxonalarni birma-bir sanadi.
Bu axlatxonalar chivinga ma'qul keladi deb o'yladi.

Chivin o'sha tomonga uchib ketdi. Yo'lda asalarini uchratdi.

– Shu yaqin atrofda axlatxonaga duch kelmadingmi? – deb so'radi.

Asalari ko'rmaganini aytdi. Lekin tevarak-atrofda rang-barang gullar ochilgan gulzor borligi haqida xabar berdi. Gullar haqida zavqlanib so'zladi.

Do'st tanlayotganda uning kim ekaniga e'tibor berish kerak.



1. Masalning bosh qahramonlarini ayting.
2. Pashsha chivinga nima dedi?
3. Asalari chivinga nima dedi?
4. Sizningcha, bu masal nimani o'rgatadi?



Tasavvur qiling, siz jurnalistisiz.
Partadosh o'rtog'ingizdan
intervyu olyapsiz.
Undan quyidagilarni so'rang:

1. Yoshing nechada?
2. Sevimli mashg'uloting nima?
3. Qaysi taomni yoqtirasana?
4. Qaysi fanlarga qiziqasana?
5. Kelajakda kim bo'lmoqchisana?



Mana bu vaziyatlar nima bilan tugashi mumkin?

- 1-vaziyat. Sinfdosh do'stingiz Said kasal bo'lib,
bir hafta maktabga kelmadi.
- 2-vaziyat. Munisa bilan Gulbahor tortishib qoldi.
Gulbahor xafa bo'lib, tinchlanib olish
uchun sinfdan chiqib ketdi.
- 3-vaziyat. O'rtog'ingiz Ilhom tanaffusda yo'lakdagi
deraza oynasini sindirib qo'ydi.



Gul rasmini chizing. Gulning markaziga o'z ismingizni,
gulbarglariga esa do'stlaringiz ismini yozing. O'ylab
ko'ring, ular bilan nima uchun do'stlashgansiz?

Do'stlikning boshlanishi



Bolaligimda ko'p kitob o'qirdim. Bir kuni anchadan beri qidirib yurgan kitoblarimni kutubxonadan topib, tezroq o'qish uchun uyga shoshib ketayotsam, ko'cha boshida o'tirgan bekorchi bolalar har doimgidek meni masxara qilishdi. Biri kelib, yelkamdani itarib yubordi. Oyog'im toyib yiqildim, kitoblarim sochilib ketdi. Ko'zoynagim singanini ko'rib, endi kitoblarni qanday o'qiyman deb, alamdani yig'lab yubordim.

Shu payt bir bola yugurib kelib, yonimda to'xtadi:

– Yomon yiqilmadingmi? Qayerda turasan?

U mahallamizga yaqinda ko'chib kelgan ekan. Uyga birga ketdik. Yo'l-yo'lakay tanishib oldik.

Shundan keyin har kuni suhbatlashadigan, birga futbol o'ynaydigan bo'ldik. U qiziq-qiziq voqealarni so'zlab berardi...

Men bugun mashhur yozuvchiman. Yozuvchi bo'lishimda esa do'stimning hissasi juda katta.



1. Bolalar o'rtasidagi do'stlik qanday boshlandi?
2. Ularni nima yaqinlashtirdi?



Do'stlik insonlarni bir-biriga bog'lab turadigan o'zaro ishonch hissidir.



Maqollarni o'qib, ma'nosini aytib bering.

1. Daraxt ildizi bilan kuchli, odam – do'stlari bilan.
2. Do'st boshga kulfat tushganda bilinadi.



Sarvar biroz dangasa, shuning uchun yaxshi o'qimaydi. Yaxshi o'qimagani uchun esa tortinadi, sinfdoshlari bilan kam gaplashadi. Bir kuni ustoz 2-sinf o'quvchilari o'rtasida yugurish musobaqasi bo'lishini aytdi.

– Sarvar rosa tez yuguradi, sinfimiz nomidan qatnashsin, – dedi Aziza.

Sarvar Aziza uni qo'llab-quvvatlasa ham, bir og'iz rahmat aytmadi. Lekin sinfdoshlarining ishonchini oqlash uchun astoydil harakat qilib, musobaqada birinchi o'rinni egalladi. O'rtoqlari uni tabriklab, rahmat aytishdi. Sarvar sinfdoshlari orasida o'ziga yarasha o'rni borligini his qildi. Shundan keyin dangasalik qilmay, faqat a'lo baholarga o'qishga qaror qildi. Sinfda do'stlarining soni orta boshladi.



1. Dangasa bolalar sizga yoqadimi?
2. Sarvarning o'zgarishiga kim hissa qo'shdi?
3. Ishonch bildirish odamga qanday ta'sir qiladi?



“Texnologiya” darsiga qo’ng’iroq chalindi. Zuhra qarasa, Iroda nimadandir xafa bo’lib o’tiribdi. Negaligini so’ragan edi, qaychisi bilan rangli qog’ozlari uyda qolib ketganini aytdi.

– Mana, menikini ishlatib tur, – deb uni tinchlantirdi Zuhra. Iroda xursand bo’lib, dugonasiga rahmat aytdi.



1. Nima uchun Zuhra Irodaga yordam berdi?
2. Bunday vaziyatda siz nima qilasiz?





Jamshid shaxmatni yaxshi o'ynaydi, ko'p kitob o'qiydi. U – yaxshi suhbatdosh. Unda bolaligidan ko'rish bilan bog'liq muammolar bor, shuning uchun ko'zoynak taqadi. Bolalar Jamshidni ko'zoynak taqqanligi uchun mazax qilishadi. Bu holat Umidaga yoqmaydi va doim do'stini himoya qiladi.



1. Sizning do'stingiz bormi?
2. Siz uni nima uchun do'st deb hisoblaysiz?



Sinfdoshlaringiz bilan “Bizning ahil sinfimiz” mavzusida kollaj yoki taqdimot tayyorlang.

